“ADOBE PHOTOSHOP DASTURIDA GRAFIK KARTINALAR YASASH”

Murtazoyev Sohib Tolibovich

Buxoro shahar 1-sonli texnikumi

Informatika va axborot texnologiyalari fani o’qituvchilari

Photoshop - bu bitmap grafik muharriri. Ular piksellardan iborat - har qanday rasmni kattalashtirganingizda ko'radigan kvadratchalar.

Bu nima uchun? Photoshop fotosuratlarni ranglash va suratga olish, kollajlar va rasmlarni yaratish uchun mos keladi.

Mos kelmaydigan narsa uchun. Ko'p sahifali bosma materiallar va saytlarni joylashtirish uchun mos emas - bu tizimni juda og'ir yuklaydi. InDesign-da va Figma yoki Sketch-da Internetda chop etish qulayroq. Logotiplar, piktogrammalar va kelajakda o'lchash kerak bo'lgan barcha narsalar, vektor bilan ishlash uchun mo'ljallangan dasturlarda chizish yaxshiroqdir. Ularda yaratilgan tasvirlar sifatni saqlab qoladi, chunki ular pikseldan iborat emas, lekin ajralmas raqamlardir (jpeg-ga yoki rastrlashdan oldin).

Adobe Photoshop dasturida jami 46 ta asboblar mavjud bo’lib, ulardan 20 tasi bevosita dastur ishga tushirilganda darchada kuzga tashlanib turadi. kolganlarini qo’shimcha buyruqlarni bajarish orqali ishga tushirish mumkin. Agar asboblar panelida joylashgan tugmaning ostki kism ung burchagida kichik uchburchak shakli tasvirlangan bo’lsa, bu tasvir ushbu tugma tarkibida uxshash buyruqni bajaruvchi asboblar yashiringanligidan darak beradi.Yashiringan asbobni aktivlashtirish uchun kursorni maxsus belgili tugma ustidan "sichqoncha"ning chap tugmasini bosgan xodda asboblar panelidan tashkariga olib chiqiladi va kerakli tugma ustida kursorni keltirilib "sichqoncha"ning chap tugmasi kuyib yuboriladi.

Har bir tugmaga kursor yakinlashtirilsa, kursor belgisi ostidagi asbobning qanday vazifani bajarishi xakidagi axborot paydo bo’ladi.

Boshlashdan oldin sozlamalar

Ishni boshlashdan oldin dasturni sozlang, shunda uning mahsuldorligi yaxshilanadi va ishlash sizga qulayroq bo'ladi. Bu vaqtni tejaydi va natijalarni yaxshilaydi.

Agar so'ralsa, interfeysning to'rtta rangidan birini tanlashingiz mumkin (1). Buni amalga oshirish uchun "Tahrirlash" menyusidagi interfeys sozlamalariga o'ting, agar rasmdagi ranglarning aniqligi muhim bo'lsa, ochiq kul rangni tanlang. Juda qorong'i yoki ochiq muhit ularning idrokini buzadi. Qora interfeys bilan taqqoslaganda, oq rang bilan solishtirganda, tasvirlar engilroq va boyroq ko'rinadi - aksincha. Bundan tashqari, ochiq kul rangni tanlasangiz, siz engil fonda quyuq shriftni o'qiysiz - shuning uchun matn teskari matnga qaraganda ko'proq tanishdir.

Adobe photoshop dasturida tasvirlar bilan ishlash.

Tasvirning haqiqiy o’lchami

Tasvir o’lchami

To’la ekranli rejim

Tasvirning bosma shakldagi o’lchami (Razmer pechati)

Tasvir o’lchami

Adobe Photoshop dasturida tasvir o’lchamlarini ekranda tasvirning barcha qismini yoki tasvirdagi kichik detallarni ko’rish uchun xohlagancha kattalashtirish yoki kichraytirish mumkin. Ayni jarayon foizlar hisobida orttiriladi.

Tasvirning haqiqiy o’lchami

Adobe Photoshop dasturida 100% li o’lcham tasvirning real o’lchami deyiladi. 100% li o’lchamda tasvir aniq va ravshan ko’rinadi.

Tasvirning real o’lchami quyidagi amallarni bajarish orqali o’rnatiladi:

Menyular satrida VID menyusida Realny razmer buyrug’ini tanlang.

Ctrl+ Alt+ 0 (nol) tugmalarini birgalikda bosish orqali.

Asboblar panelidagi Masshtab tugma ustida "sichqoncha" tugmasini ikki marta ketma-ket bosish orqali.

To’la ekranli rejim

Tasvirning bosma shakldagi o’lchami

Adobe Photoshop dasturi tasvirni birinchi marta ochganda uni maksimal o’lchamda ochadi. Tasvir bilan ishlash jarayonida uning o’lchamini bir necha marta kattalashtirish yoki kichraytirishga to’g’ri keladi. Ana shunday xolatlarda tasvirni xoxlagan paytda dastlabki Polnoekranny rejim holatiga qaytarish mumkin. Buning uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:

Menyular satrida VID menyusi tarkibidagi По раѓмерам экрана komandasini tanlash;

Ctrl+ 0 (nol) tugmalarini birgalikda bosish;

Asboblar panelidagi Рука tugmasi ustida "sichqoncha" tugmasini ikki marta ketma-ket bosish;

Adobe Photoshop dasturi tasvirning printerda chop qilingandagi ko’rinishini chop qilmasdan avval ekranda ko’rish imkonini beradi. Buning uchun Menyular satrida Иѓобрађенєе menyusi tarkibidagi Раѓмер єѓобрађенєя buyrug’ini tanlanadi. Ammo, hamma vaqt ham tasvirning ekrandagi ko’rinishi bilan chop etilgandagi o’lchamlari aynan mos bo’lavermaydi. Tasvir kattaliklari 0,2% dan 16 000% miqdor o’rtasidagi sonlar bilan belgilanadi.

Ortga

3. Adobe photoshop darchalari bilan ishlash.

Navigator darchasi bilan ishlash

Adobe Photoshop dasturida tasvirdagi mayda detallar bilan ishlash jarayonida tasvirni bir necha marta kattalashtirishga to’g’ri keladi. Tasvirga kiritilgan o’zgartirishlar sifatli chiqishi uchun Navigator darchasida amal bajariladi. Navigator darchasi (12.5 rasm), asosan, tasvir o’lchamlarini o’zgartirish va tasvirni boshqarish uchun xizmat qiladi. Agar Navigator darchasi Adobe Photoshop dasturi ishga tushirilgan chog’da ekranda mavjud

bo’lmasa, uni aktivlashtirish uchun menyular satrida Окно menyusidagi Показать навєгатор buyrug’ini tanlang.

Action darchasi bilan ishlash

Action darchasi Adobe Photoshop dasturida ishlashni yanada tezlashtiradi va bir necha tasvir ustida amalga oshiriladigan bir xil amallarni har safar takrorlashga zaruriyat koldirmaydi. Adobe Photoshop dasturidagi Action darchasi bilan ishlashni bilsangiz, kiska fursat ichida ko’p miqdordagi tasvirni tahrir qilishingiz mumkin. Buning uchun Action darchasida yangi Action ochiladi. Uni kerakli nom bilan nomlagandan so’ng Record tugmasi bosiladi. Shu daqiqadan boshlab, Adobe PhotoShop dasturi Sizning tasvir ustida bajargan barcha amallaringizni kompyuter xotirasiga ketma-ket joylashtiradi. Tasvir ustida barcha amallar yakunlangandan so’ng Action darchasidagi Стоп tugmasi bosiladi. Adobe PhotoShop dasturi sizning barcha amallaringizni tartibli ravishda Action darchasida joylashtiradi. Boshqa tasvirlarga ushbu amallarni qo’llash uchun yangi tasvir ochilgandan so’ng Action darchasidagi Vpolneniye buyrug’ini ishga tushirish lozim. Adobe PhotoShop dasturi avtomatik tarzda yangi ochilgan tasvirda ham Siz amalga oshirgan amallarni hech bir o’zgarishlarsiz bajaradi.

Tasvir formatlari

BMP (Windows Bitmap – Windows HHHr vit kartasi) - Windows muxitida ishlovchi kompyuterlarda ekran osti tasvirlarini kullovchi dastur Microsoft Paint da keng qo’llaniladi.

TIFF (Tagged Image File Format) - bu formatdagi fayllar ham keng qo’llaniladi. Lekin TIFF formatidagi fayllar kompyuter xotirasida ko’p joyni egallaydi. Adobe PhotoShop dasturida ushbu formatdagi tasvirlar bilan ishlashda dasturning ishlash tezligi sezilarli ravishda kamayishi mumkin.

GIF (Graphics Interchage Format - grafikni ayriboshlash formati) - ushbu formatdagi tasvirlar 256 turdagi rang bilan tasvirlanadi. Bu formatdagi tasvirlar, asosan, Internet tizimida keng qo’llaniladi.

JPEG (Joint Phonographic Experts Group) - hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigan formatlardan biri bulib, uning asosiy afzalliklaridan biri maxsus dastur yordamida fayl hajmini Yetarlicha sikish imkonining mavjudligidir. Ammo faylni sikib, hajmini kichraytirish jarayonida tasvir sifatida o'zgarish bo'ladi.

XULOSA

Hozirgi kunga kelib informatsion texnologiyalar rivojanib ketishi bilan, dasturiy ta'minot ham orqada qolgani yo'q. Shu jumladan grafik muharrirlarni oladigan bo'lsak, har xil vazifalarga mo'ljallangan rasmlarni qayta ishlash, har xil effektlar yaratish, animatsiyalar hozil qilish, foto va video montaj texnologiyalari, 2D va 3D loyihalashtirish dasturlari yaratilib, ularning yangi turlari chiqmoqda. Rastrli grafika bilan ishlashda eng mashhur grafik muharrirlardan biri, bu Adobe kompaniyasining Photoshop dasturidir. Bu dastur juda ko'p funksional imkoniyatlarga ega bo'lib, professional dizayner qo'lida juda ko'p natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.S.Yoqubov, B.A.Ravshanov «Adobe Photoshop grafik muharriri imkoniyatlari» 2013.
2. Informatika. Akademik S.S.G'ulomov umumiy tahriri ostida. Darslik. Toshkent. – TDIU, 2007.
3. R.Avazov, B.Lochinov. "Grafik muharrirlari bilan tahishuv" O'quv qo'llanma. 2009.
4. B.E.Yuldashev, M.T.Maxkamov, M.Sirojiddinov. "Kompyuter grafikasi asolslari". O'.R.F.A. "Fan", 2008 y

FOYDALANILGAN WEB-SAYTLAR VA ELECTRON RESURSLAR :

1. http://www.ziyonet.uz – o'quv portali
2. http://www.google.com – qidiruv tizimi